

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA VATAN KONSEPTI

Ko'khanova Muxlisa Muzaffar qizi,
UrDU Filologiya fakulteti Lingvistika
(O'zbek tili) yo'nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan o'zbek xalq maqollarida Vatan konsepti ochiqlangan maqollar tahlil qilinadi. Shuningdek, mehnat, ilm-hunar, mardlik singari insonga xos bo'lgan odamiylik xislatlari izohlangan maqollar ham keltirib o'tilib izohlanibketiladi. Maqola ayrim o'zbek xalqining o'ziga xos maqollaridan tarkib topgan.

Kalit so'zlar: "Vatan", "mehnat", "xalq", "ilm-hunar", "mardlik", "mehmon", "tadbirkorlik", "muhabbat va vafo", "yaxshi so'z".

Lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlar hali o'zbek tilshunosligi tarixida o'zining yangilagini saqlab turibdi, shuningdek, konsept borasidagi tadqiqotlar bu fanning asosini tashkil qilmoqda. Konseptlar milliy madaniyatning tilda aniq va keng aks ettira oladigan birlik sifatida tahlilga tortilayotgani esa tilshunoslik uchun yaxshi natijalar bermoqda. Mavzu doirasidan kelib chiqqan holda maqollardagi konseptual xilma-xillikni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Maqollar, xususan, o'zbek xalq maqollari o'z qatida turli-tuman konseptlarni mujassamlashtirgan. Ayniqsa, "Vatan" konsepti o'zbek xalq maqollarida yetakchilikni tashkil qiladi. Bu bejizga emas. Barcha xalqlarda Vatan azaldan muqaddas, ulug` dargoh sanalib kelingan. Shu sababdan ham "Vatan" konsepti aks etgan maqollar xalq og'zaki ijodida ko'plab uchraydi va unisoniy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. "Vatan" konsepti juda ko'p ochilmagan qirralari bilan hali-hamon tilshunoslarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Maqol xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'z hamdir. Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining gavharlaridir. Maqol mustaqil folklor janri sifatida qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan keskin farqlab turadi.

Maqollarni tasnif qilishda mazmun yetakchi hisoblanadi. Unga ko'ra Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon, tadbirkorlik, muhabbat va vafo, yaxshi so'z - jami 30 ga yaqin mavzular qayd etilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida "Vatan" haqidagi maqollar asosiy o'rinn tutadi.

Quyida “Vatan” haqidagi maqollarning o‘rni va milliy-madaniy konseptual belgilari bir qancha misollar yordamida ko‘rib chiqiladi:

Bulbul chamanni sevar,

Odam - vatanni.

Mazkur maqolda inson ruhiy olamida Vatan tushunchasining ahamiyati qayd etilgan. Maqoldagi Vatan so‘zida faqat muayyan hudud, manzil, o‘rin-joy, tabiat aks etgan, desak yanglish bo‘ladi. Bu so‘z ma’no jihatdan ajdodlar ruhi, ma’naviy meros obidalari, qadriyatlar, millat birligi, mentalitet xususiyatlari bilan uyg‘unlashadi. Bulbul chamanda qanchalar yaysa, inson vatanida shunchalar o‘zini erkin his qiladi. Bulbulni bog‘larsiz, gulzorsiz, chamansiz tasavvur etib bo‘lmanidek, odamni o‘z ona diyorisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu maqolni aytganimiz zahoti Zokijon Furqatning chet ellardagi azobini ta’riflab o‘z vatanini sog‘ingani yodga tushadi:

“*G‘amingda kecha - tong otg‘uncha yig‘lar,
Tong otg‘och, dag‘i kun botquncha yig‘lar*”.

Vatan haqidagi maqollarda qiyoslash, taqqos yetakchidir:

Kishi yurtida shoh bo‘lguncha,

O‘z yurtingda gado bo‘l.

Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, mazkur maqol avvalgi namunadagi mazmunni chuqurlashtiradi. Moddiy ta’minotdan ko‘ra ma’naviy ehtiyoj muhimroq ekani ifodalanadi. Tajribasiz odam hayotdagi hamma muammoni iqtisod bilan o‘lchaydi. Uning uchun turmush to‘kinligi har qanday tushunchadan afzaldek tuyiladi. Lekin Boburdek shoh o‘z diyorini eslab azoblanganidan xulosa chiqarsak, maqoldagi fikming qanchalar aniq va ibratli tarzda berilgani ma’ lum bo‘ladi.

Endi boshqa maqollarga ham murojaat qilaylik.

Ona yurting oltin beshiking. Bu yerda Vatan konsepti ham ona, ham oltin beshikka qiyos qilinmoqda. Beshik-bu go‘dak orom olib, tinch, osuda uxlaydigan bexavotir joydir. Demak Vatan ham xuddi ona kabi bizga alla aytib, tinch bo‘lishimiz uchun beshik singari bizni qo‘riqlab turadigan maskandir. Maqolda milliy-madaniy konseptual belgilarni sifatida *ona* va *beshik* so‘zlar olingan.

O‘z uying o‘lan to‘saging. O‘zga yurtda shoh, bo‘lgandan ko‘ra, o‘z yurtingni gadosi bo‘l deb bejizga aytishmagan. Bu yerda *to‘sak* o‘ziga xos konseptual belgilardan biri bo‘lib, uy ma’nosida ishlatilgan.

O‘z yurtingning qadri o‘zga yurtda bilinar. Bundan xulosa qilinadiki musofir bo‘lmaquncha Vatan qadrini, unga bo‘lgan sog‘inchni his qilish qiyin. Aslida ham shunday. *Qadr* so‘zi milliy madaniy konseptual belgi funksiyasida ishlatilgan.

Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas. Eling, yurting tinch bo‘lsa, sen ham sog‘-salomat yurarsan. *Omon* so‘zi o‘ziga xos konseptual belgi sifatida qo‘llanilgan.

Vatani borning baxti bor, mehnati borning taxti bor. Uysiz, joysiz inson hech qachon baxtli bo‘la olmas. Ushbu maqolda *baxt* so‘zi milliy-madaniy konseptual belgi sifatida xizmat qilgan.

Har gulning o‘z isi bor, har elning o‘z tuzi bor. Har bir yurtning o‘ziga yarasha past-balandliklari va issiqsovug‘i bordir. *Gul* so‘zi o‘ziga xos konseptual belgi sifatida kelgan.

*Ona yurting omon bo‘lsa,
Rangi-ro‘ying somon bo‘lmash.*

Bu maqolda shaxsning ona yurtida yashashi va istiqomat qilishi undan ma’lum burchni ham talab qilishi ifodalangan. Bu yurt omon bo‘lsa, ya’ni tinch bo‘lsa, erkin-ozod bo‘lsa, inson bemalol yashashi mumkin. Yurt tinchligi, erkinligi, ozodligi esa xalqning o‘z yurtiga bo‘lgan iymonli munosabati oqibatida vujudga keladi.

Vataning tinch- sen tinch maqolida vatandagi tinchlik va osoyishtalikka ishora mavjud, ya’ni tinch yurtda insonlar hayoti ham yaxshi bo‘ladi. Qaysi joyda tinchlik bo‘lsa, u yerning hamma sohasida rivojlanish bo‘ladi.

Vatansiz inson - kuysiz bulbul. Bilamizki, vatan bizning uyimiz unda barcha narsalar mavjud. O‘z ona yurti bor inson esa dunyoda barcha narsaga ega insondir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, vatan va unga oid maqollar o‘zida bir qancha konseptual belgilarni namoyon qila oladi. Xalq maqollarining mana shunday o‘ziga xos va milliy-madaniy konseptual belgilari esa ko‘plab misollar tahlili yordamida ko‘rsatib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик лугати. – Т.: Ўқитувчи, 1984.
2. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик лугати. –Т.: Фан, 2006.
3. Садридинова М. З. Ўзбек мақол ва маталлари лексикаси. -Т, 1984.
4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. O‘quv qo‘llanma. – Т., 2014.
5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли лугати. – Т., 1990.